

Yuldasheva Maftuna Qaxramon qizi.

Samarqand Viloyati Urgut tuman MMTB ga qarashli

63-umumta'lismaktabi 2-toifali ona-tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zidlov bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Qo'shma gap, soda gap, bog'lovchi, ammo, lekin, biroq, gap bo'laklari, zidlov bog'lovchi.*

So'zlar va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lash uchun qo'llaniladigan yordamchi so'zlar bog'lovchilar deyiladi. Bog'lovchi so'zlar va gaplar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlasa ham ular bilan birlashmaydi. Yakka holda ham biror so'zga qo'shilgan holda ham biror gap bo'lagi bo'lib kelmaydi. Bog'lovchilarning qo'llanishiga ko'ra ikki xil: Yakka bog'lovchilar, takrorlanuvchi bog'lovchilar. Yakka bog'lovchilar: va, ham, hamda, ammo, lekin, biroq, chunki, balki, basharti, shuning uchun kabi. Takrorlanuvchi bog'lovchilar nutqda takror holda ishlataladi: yo, yoki, goh, dam, ba'zan, bir, na (yo, yoki bog'lovchilari yakka holda ham ishlataladi). Yo boshiga tushgan tashvish bilan bo'lib shogirdini chaqirgani yodidan ko'tarildimikan? Bog'lovchilar gap bo'laklari va gaplarni qay tarzda bog'lasliiga ko'ra ikki xil: teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar. Teng bog'lovchilar gap bo'laklari va gaplarni grammatik jihatdan tenglanish asosida munosabatlari bo'lmaydi. Teng bog'lovchilarning quyidagi turlari bor: birikiruvchi bog'lovchilar, zidlov bog'lovchilar, ayiruv bog'lovchilar, inkor bog'lovchisi.

Zidlov bog`lovchilar guruhiba biroq, ammo, lekin, balki, holbuki kabi so`zlar kiradi. Bu bog`lovchilar mazmunan bir-biriga qarama-qarshi qo`yilgan bo`laklarni yoki gaplarni bog`lash uchun xizmat qiladi.

Biroq, ammo, lekin bog`lovchilar gap bo`laklarini bog`lab kelganda zidlik ma'nosini, shu bilan birga, gap mazmunini to`ldirish, izohlash, qiyoslash uchun ham xizmat qiladi. Qo'shma gap qismlari tarkibidagi sodda gaplarni bog`lashda esa keyingi qism avvalgi qismda aytilgan fikrga qarama-qarshi, zid faktlar ifodalanadi. Shuning uchun bu faktlar, voqeа-hodisalardan faqat bittasining bo`layotganini, ikkinchisi inkor etilganigi ma'nosi anglashiladi.

Zidlov bog`lovchilar bog`langan qo'shma gap qismlarini bog`lash bilan birga, ular o'rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham ifodalaydi. Zidlov bog`lovchilar qo'shma gapning ikkinchi qismi boshida qo'llanadi va qo'shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi.

-u(-yu), -da yuklamalari bog`langan qo'shma gap qismlarini bog`lash bilan birga ular o'rtasida zidlash, ketma-ketlik munosabati mavjudligini bildiradi.

Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap

1. Bunday qo'shma gap qismlari o'zaro quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

a) ammo, lekin, biroq, balki zidlov bog'lovchilari bilan bog'lanadi

-Insonni tabiat vujudga keltiradi, ammo jamiyat uni kamol toptiradi

b) Zidlov bog'lovchisi vazifasidagi -u, -yu, -da yuklamalari yordamida bog'lanadi

-Gap ko'p-u, ko'mir oz

2. Bunday qo'shma gaplar orasida quyidagicha ma'no munosabati bo'ladi:

a) zidlik manosi b) -u, -yu, -da yuklamalari zidlash, ketma-ketlik munosabati borligini bildiradi.

Bazan zidlikni kuchaytirish uchun 2 ta zidlov bog'lovchisi yoki zidlov bog'lovchisi, zidlov bog'lovchisi vazifasidagi -u, -yu, -da yuklamalari bilan birga qo'llanishi mumkin

-Mahalla hali obod bo'lganich yo'g'-u, lekin odam ruhi bor. Bu yerda mano kuchaygan

3. Bunday qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatalishi:

a) Zidlov bog'lovchilari qo'shma gapning 2- qismi boshida keladi bulardan oldin vergul qo'yiladi.

b) Zidlov bog'lovchisi vazifasidagi -u, -yu, -da yuklamalari esa qo'shma gap 1-qismining oxirida keladi va ulardan keyin vergul qo'yiladi.

Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda voqeа-hodisaning yoki harakatning bir-biriga zidligi, shunga qaramay ulardan birining yuzaga kelishi yoki yuzaga kelmaganligi ifodalanadi. Masalan: Vasiyatnomा shunday ham tiklangani ma'lum bo'lgani rost, lekin bundan bolaning xabari yo'q-ku! (O'.U.)

-u (-yu) yuklamalari zidlov bog'lovchilari o'rnida qo'llanib, zid munosabatdagi bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lashga xizmat qiladi. Ba'zi hollarda bu bog'lovchilar bilan birikkan qo'shma gaplarda u(-yu) yuklamasi zidlikni kuchaytirish uchun qo'llanadi. Masalan: Ishim nihoyatda ko'p-u, kelmaslikka ilojim yo'q. (So'zl.) Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda ba'zan zidlik bilan birga to'siqsizlik munosabati ham shakllanadi. Qiyoslang: Men u bilan gaplashmadim, lekin uning ko'zları ba'zi-ba'zida uzun kipriklari ostidan menga boqardi.

Xulosa qilib aytsak, gapdagи zidlov bog'lovchilari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ular o'rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham ifodalaydi. Zidlov bog'lovchilari qo'shma gapning ikkinchi qismi boshida qo'llanadi va qo'shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi.

Kesimlaming birdan ortiqligidan tashqari, har bir qo'shma gapda ifodalananayotgan. Birdan ortiq fikr, o'zaro zich munosabati, gaplararo grammatik taqozo etuvchilik hamda intonatsion yaxlitlik kabilari ham bu sintaktik qurilmalaming qo'shma gapligini ta'minlaydi. Kommunikativ nugtayi nazardan sodda gap bir fikmi, axborotni uzatish vazifasini bajarsa, qo'shma gapda birdan ortiq o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shuningdek, bu alohida axborotlar asosidagi munosabat ham qo'shma gapda qaysidir

darajada bo'rtib turadi. Masalan: Jahongir keldi. Men shu ondayog' jo'nadim gaplarida ifodalangan fikrlar bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lib, gaplaring biri ikkinchisini tagozo etadi. Bu jihatdan ular Jahongir keldi va men shu ondayoq ketdim gapidan ajralib turadi, Demak, qo'shma gap grammatik shakllangan va birdan ortiq axborotni tashish uchun mo'ljallangan nisbiy mustagil soda gapning grammatik, semantik, intonatsion va kommunikativ jihatdan yaxlitlangan butunligidir.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gap alohida olingan sodda gapdan nisbatan mustaqil ajralib turadi. Avvalo, bu – grammatik va intonatsion nomustaqlilik. Bahor keldi, shuning uchun dala ishlari qizib ketdi qurilmasiga ergash gapli qo'shma gap tusini bergen jihat mazmuniy va grammatik tagozo etish va birdan ortiq axborot mavjudligi. Birinchi gapdagi mazmun ikkinchi gapdagi mazmun uchun sabab magomida. Shuning uchun bog'lovchisi qo'shma gap a'zolarini Grammatik jihatdan zinch munosabatga kiritgan .Demak, ma'lum bo'ladiki, go'shma gap tarkibidagi sodda gapning o'zaro zichlashuvi mazmun,grammatik shakl va intonatsiya nuqtayi nazaridan boladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асқарова М. Ҳозирги замон ўзбек тилида қўшма гаплар. –Т., 1960, 6-7-бетлар.
2. Sayfullayeva.R, Mengliyev B, va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili-T: Fan va texnologiya,2009,395-397 bet
3. Nurmanova D.A. "Hozirgi o'zbek tili" ma'ruza matni -Andijon,2017
- 4.Rahmatullayev Sh, Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent, "Universitet"— 2006
5. Shoabdurahmonov.Sh, Asqarova.M, Hojiyev. A, Rasulov. I, Doniyorov.X, Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent, "O'qituvchi" — 1980